



TOHIR MALIK ASARLARIDA ARGO VA JARGONLARNING IFODALANISHI

Panjiyeva Jasmina Chorshanbi qizi

TerDu 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **D. A. Ergasheva**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tohir Malik asarlarida ifodalangan jargon va argolar tegishli matnlar ichidan aniqlanib, tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Chegaralangan leksika, argo, jargon, professional jargon.

Leksemlar ishlatilish doirasi jihatdan avvalo 2 guruhga bo'linadi: ishlatilish doirasi chegaralanmagan qatlam va ishlatilish doirasi chegaralangan qatlam. Bunday guruhlariga ajralish asosan ot, sifat, ravish va fe'l turkumlaridagi leksemalarga xosdir. Son va olmosh turkumlarida, shuningdek, bog'lovchi, yuklama, va undovlarda ishlatilish doirasi chegaralangan so'zlar yo'q.

Ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksemlar o'zbek tilida so'zlashuvchilarning barchasi uchun umumiy bo'lgan, hammaga tushunarli va hammaning nutqida bir xil darajada qo'llanadigan so'zlardir: qo'l, qosh, ko'z, daraxt, meva (otlar); oq, qora, katta, kichik, yaxshi, yomon (sifatlar); tez, oz, ko'p, atayin, jo'rttaga (sifat - ravishlar); yurmoq, o'qimoq, yozmoq (fe'llar) va boshqalar. Bunday leksemalar umumxalq lug'aviy birliklari deb ham yuritiladi.



Ishlatilish doirasi chegaralangan leksemalar dialektga, kasb – hunar leksemasiga va jargon – argolarga xos soʻzlardir. Jonli soʻzlashuvda ishlatiladigan vulgarizmlar ham qoʻllanilishi chegaralangan lugʻaviy birliklar sanaladi.

Jargon atamasi dunyo tilshunosligida quyidagi maʼnolardan kelib chiqqan deb tushuniladi:

- jargon yahudiy tilining eskirgan nomi;
- jargon – qimmatbaho tosh, olmos polishing bilan sariq sirkan;
- jargon ijtimoiy dialektdir.

"Jargon" soʻzi eski fransuz tilidagi "jargone" soʻzidan olingan. Turli tillarda bu atama turli nomlar bilan ifodalanib kelgan. Xususan, eski Italian tilida "gergone", ingliz tilida "slang" atamasi ishlatiladi. Ispan tilida XVI asrda vujudga kelgan "jeriganza" soʻzidan olingan "jerga" qisqartmasi jargon soʻzi oʻrnida ishlatilgan boʻlsa, Portugal tilida "grigaza" soʻzi ayni shu maʼnoni anglatadi.

Jargon atamasi XVII asrda fransuzcha "harigoter" (yomonlik, yomonlik qilish) soʻzidan kelib chiqqan va dastlab jamiyatning quyi darajasi – tilanchilar, oʻgʻrilar, loʻlilar tili sifatida ishlatilgan. Dastlab uning qoʻllanish darajasi juda tor boʻlib, lingvistik qatlamda boʻlganidek keyin turli mutaxassislar tomonidan " maxsus ifoda " sifatida keng qoʻllanila boshladi.

Jargon – biron ijtimoiy yoki professional guruhga xos, faqat ularning oʻzi tushunadigan va adabiy tildan farq qiladigan soʻz va iboralar. Jargonlarning ishlatilishidan koʻzlangan asosiy maqsad oʻzaro muloqot jarayonida soʻzlovchining tinglovchidan ustun ekanligini koʻrsatishdir. Baʼzi sotsial guruh aʼzolari oʻzlarining muloqot nutqi jarayonida jargon birliklardan faol foydalanadi, oʻz foydalanuvchilari uchun maxsus maʼno anglatuvchi bunday birliklarning maʼnosini shu guruhga aloqasi boʻlmagan kishi tushunmaydi, asosan,



o'z ma'nosida qabul qiladi. Natijada nutq egasi va tinglovchi o'rtasida ma'lum ma'noda farq yuzaga keladi. Jargonlarning lingvistik vazifasi ham ayni shu nutqda o'zini namoyon etadi.

Jargonlar ijtimoiy guruh vakillari nutqida faol ishlatiladigan birliklar. Masalan, novcha (around), qizil (konyak) – ichuvchilar nutqiga xos; dum (topshirilmagan imtihon), tanka (imtihonda yordam beruvchi shaxs) – studentlar nutqiga xos; loy (pul) – otarchilar nutqiga; soqqa (pul), ko'kat (AQSH dollari) – savdogarlar nutqiga xos jargonlardir. Jargonlar antropotsentrik tilshunoslikka bo'lgan davrda faqat leksikologiyani o'rganish obyekti bo'lib kelgan. Antropotsentrik tilshunoslikda esa jargonlarga sotsiolingvistik nuqtayi nazardan yondoshiladi. Endi u mukammal o'rganish va tadqiq etishni talab qiladi. Sinxron va diaxron jihatdan jargonlarni o'rganish uning tub mohiyatini, ishlatish sabablarini aniqlashga xizmat qiladi.

Ingliz tili stilistikasi bilan qiziqqan L. T. Boboxonova jargon deganda Tilda mavjud bo'lgan hamda yangi ma'no olgan so'zlar tushunilishini aytadi. Chunonchi, sport sportchilar, musiqachilar, harbiylar, o'g'rilar jargonlari mavjud. Jargonlar faqat o'sha sohalardagi kishilargagina tushunarli. Lekin keng omma o'rtasida og'zaki nutqda ishlatiladigan jargonlar ham bor: shapkasi (yashirincha qo'yilgan ustama narx), so'lkavoy (10 so'm), qurug'i (nasha), latta (yigit), loy, soqqa (pul), dor (go'zal), xit, deg'o (begona), qaychi (revizor), suv qilmoq (morning birovga oshirmoq, sotmoq), cho'tal (qimor o'yinlarida yutgan pul).

O'zbek tilida jargonlarni psixolingvistik aspektida o'rgangan M. Ahmedova noadabiy so'zlar haqida fikr yuritarkan, bunday lug'aviy vositalarni til lug'at boyligining ajralmas tarkibiy qismi ekanligini e'tirof etadi. Argo maxsus mahfiy ma'noli so'z bo'lib, ko'proq salbiy, hissiy emotsional bo'yoqqa ega. Jargon va argolarning muayyan xususiyatlarga egaligi ularning nutqiy jarayonda, xususan, badiiy matnlarda uslubiy bo'yoq sifatida foydalanish imkonini yaratadi.



Jargon turlari har xil sabab va sharoitga ko'ra paydo bo'ladi. Biron bir professional (biror kasbga oid va unga bog'liq bo'lgan) guruhga yangi so'z va iboralarning paydo bo'lishi umumiy usullardan biridir. Shuni yodda tutish kerakki, ko'pincha bitta guruh tomonidan ishlatiladigan jargon so'zlar boshqa guruhlarda boshqacha ma'noga ega. Ba'zi shartlar yangi so'zning paydo bo'lishini tezlashtiradi. Masalan, aholining turli millet vakillari va qatlamlarini o'z ichiga olgan yangi guruhlarining shakllanishi yangi jargonning tez yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Masalan, qurolli kuchlarda qo'llaniluvchi " voki-toki ", " samovolka ", " dembel " kabilar... Ba'zan biron kishi yangi so'z o'ylab topadi va qolganlar esa uni ilib ketadi.

Ko'p hollarda, jargon inson ma'naviyatidagi salbiy qusurlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Uni kuchli rivojlangan va aniq terminlarga ega biror kasb tili bilan aralashtirmasliklozim. Jargon barqaror bo'lmaydi, u ham til, ham uslubiy jihatdan turli-tuman va tezda o'zgaruvchan xususiyatga ega. Yoshlar orasida " ketdim " o'rniga " sirpandim ", " pul " o'rnida " soqqa "; san'atkorlar orasida " xizmat uchun haq olmaslik " o'rnida " tom suvoq ", " pul " o'rnida "yakon" va shu kabi jargonlar uchraydi.

Jargonning asl maqsadi uzatilgan ma'lumotni sir saqlash, " biz " va " ular " ni kodlash va tan olishning bir turi edi. " Yashirin til "ning bu funksiyasi gangster muhitida asotsial elementlarning nutqi sifatida saqlanib qoladi va o'g'rilar jarangi deb ataladi.

Professional jargonlar bu ma'lum bir professional muhitda maxsus atamalar va tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladigan lug'atni qisqartirish yoki birlashtirish orqali soddalashtirilgan so'zlar. Ushbu so'zlar texnik ta'riflarning ko'pligi va talaffuz qilish qiyin bo'lganligi yoki ularning ma'nolari zamonaviy rasmiy tilda umuman yo'qligi sababli paydo bo'ldi. Jargon so'zlar deyarli barcha professional uyushmalarda mavjud. Ularning so'z shakllanishi hech kimga bo'ysunmaydi maxsus qoidalar uchun.



Tohir Malik (asl ismi Hobilov Tohir Abdumalikovich) — taniqli o‘zbek yozuvchisi. O‘zbek adabiy fantastikasining asoschilaridan biri, ma’rifat arbobi. "Do‘stlik" ordeni va "O‘zbekiston xalq yozuvchisi" faxriy unvoni sohibi. 1946-yilning 27-dekabrida Toshkent shahrida ziyoli oilasida dunyoga kelgan. Dastlabki hikoyasi 1960-yilda Gulxan jurnalida chop etiladi. Birinchi yirik asari — „Hikmat afandining o‘limi“ (1972). „Zaharli g‘ubor“ (1974), „Falak“ (1975), „Somon yo‘li elchilari“ (1978), „Chorrahada qolgan odamlar“ (1982), „Bir ko‘cha, bir kecha“ (1983), „Alvido, bolalik“ (1989), „So‘nggi o‘q“ (1990), „Ov“ (1995) kabi ilmiy-fantastik, sarguzasht qissalari mashhur. „So‘nggi o‘q“ qissasi asosida 7 qismli telefilm (1994) yaratilgan. „Qaldirg‘och“ (1987) epik asari Abdulla Avloniy taqdiri misolida 20-yillar o‘zbek ziyolilarining shakllanishi haqida bahs yuritadi. „Mehmon tuyg‘ular“ (2003) nomli xotira, yodnoma, adabiy maqolalar to‘plamida adabiy jarayondagi muammolar aks etgan.

„Shaytanat“ asarida jinoyat olamidagi voqealar fonida asosiy e’tibor asar qahramonlarining ruhiy dunyosini tahlil etishga qaratilgan. Kishilarni jinoyatning razil olamidan ehtiyot bo‘lishga chaqiruvchi ushbu ogohlantiruvchi asar mazmuni Tohir Malikning „Jinoyatning uzun yo‘li“ (2004) ilmiy-tahliliy risolasida davom ettirilgan. Hozirgacha yozuvchining 20 dan ortiq qissasi chop etildi. 1971-yilda chop etilgan „Hikmat afandining o‘limi“ dan keyin „Falak“ (1976), „Somon yo‘li elchilari“ (1976) tahayyul, ilmiy-tahayyul qissalari bosildi. „Chorrahada qolgan odamlar“ qissasida tahayyul va detektiv xususiyatlari seziladi. „Alvido bolalik“ (1989), „Qaldirg‘och“ (1987) qissalarida muhim mavzu ishlanadi. Mutaqillik yillarida Tohir Malik „So‘nggi o‘q“ (1990), 4 qismdan iborat „Shaytanat“ (1994–2001), „Odam ovi“ (2001), „Charxralak“, „Murdalar gapirmaydilar“ (1999) qissalarini chop ettirdi. Yozuvchi 20-asrdagi hayotni, kishilar taqdirini goh tahayyul, goh izchil xolis, goh detektiv yo‘sinda tasvirlaydi. U qissa janri imkoniyatlarini uzluksiz boyitib bormoqda. 2002-yilda yozuvchining „Mehmon tuyg‘ular“



o'ylari, „Jinoyatning uzun yo'li“ risolasi chop etildi. Mustaqillik yillarida eng ko'p adabiyotda kitob chop ettirgan.

Tohir Malikning " Shaytanat " sarguzash-detektiv romani o'zining ma'naviy-axloqiy muammolari bilan talabchan kitobxon va adabiy jamoatchilik e'tiborini qozondi. Tohir Malik so'ngi yillarda romannavis sifatida shuhrat qozondi. Yozuvchi o'zi bu asar haqida shunday degan: " Men jinoyat olamini " shaytanat ", ya'ni shaytonlar yetovidagi zulmkor mamlakat deb atab, " Ehtiyot bo'ling, jigarlarim, bu ko'chaga yaqin yo'lamang. Boshi berk ko'chaning adog'ida faqatgina azobli, xorli o'lim topasiz " , demoqchi niyatida yozdim. Yozganlarimni ogohlantirish deb qabul qilishlarini is tarjima.

Asar qahramonlari. Asosiy obrazlar: Asadbek, Manzura, Elchin, Noila, Anvar, Xolidiy, Tabibboshi, Zaynab, Abdulhamid, Abdusamad, Jalil, Mahmud, Jamshid, Kesakpolvon, Mamatbey, Abdurahmon.

Asarda qo'llangan argo va jargonlar.

"Mehribonlar " safining boshida " xalq otasi " turgani aniq. (" Shaytanat " 5- bet). Ushbu gapdagi " xalq otasi " birikmasi Xolidiyga tegishli edi. Bu nomni Asadbek va uning atrofida gilar tushunishardi. Bu to'tadan tashqarida gilar Xolidiyni " xalq otasi " deb tanimas edilar.

... Jalil buni bilgani uchun ham ularni ayamas edi. To'g'ri ba'zan u quyishqondan chiqadi. Ularning, hatto Asadbekning ham hamiyatiga tegdi. Shunday bo'lsa-da, uni kechirishadi. Boshqa odam Jalilning tilidan uchgan gaplarni aytib yuborsami – hukm tayin. Ammo Jalil bu davrada, o'z iborasu bilan aytganda " Shaytonsaroy " da, moziy yodgorxonasining qirilib ketayotgan pokizalik ramzi sifatida saqlanuvchi anjomi kabi asraladi (" Shaytanat " 15- bet). Yuqoridagi parchada keltirilgan " Shaytonsaroy " so'zi argo hisoblanadi.



... To'g'ri u yoqlarda Asadbek, desangiz birov bilmas edi. Lekin " o'qilon " ko'pchilikka taniqli edi. Elchin umrida o'qilonni ko'rmagan, biroq, o'zi kichkina bo'lgan bu Ilona o'qday uchib yuradi, odamga duch kelsa tovonidan teshib, miyasidan chiqadi, deb eshitgandi. Asadbekka " o'qilon " deb laqab qo'ygan odam shuni nazarda tutganmi?(" Shaytanat " 18- bet). Mazkur matnda ifodalangan " o'qilon " so'zi jargon hisoblanadi. Bunda Asadbek tushinilgan.

... Bunday ochiq savdoni Elchin kutmagan edi. " Bilib turib so'rayaptimi yo taxminan mo'ljalga olayaptimi? Qizi yo'qolganidan keyin yigitlari izg'ib hid olishgan bo'lsa-chi?" Elchin arqonni uzunroq tashlash maqsadida o'zini go'llikka soldi:

— ota-onam o'tib ketishibdi, Xudo rahmat qilsin ularni...

— Chaynalma! Kimlarni so'rayotganimni bilib turibman. Sen men bilan mushuk-sichqon o'ynama. Mayda baliqlar hamma vaqt kattalariga yes bo'ladi. Senlar "chivinsanlar", men " burgatman " (" Shaytanat " 20- bet)

... Jinoyat qidiruv bo'limining xodimlari

— Zohidning kechagi hamkasblari shu yerda. O'rtada Humalog stol. Stol ustida " oq kukunli shaffof xaltachalar" tanish manzara (" Shaytanat " 22- bet). Yuqoridagi gapda qatnashgan " oq kulunli shaffof xaltachalar " argo bo'lib qora dori solingan xaltachalar ma'nosini anglatadi.

— Kukunni qayerdan oldilaring?-deb so'radi Zohid. Ushbu gapdagi " kukun " qora dori ma'nosida kelgan.

...Yozuvchining o'ziga xos uslubi bo'lganidek, jinoyatchilarning ham o'z uslubi mavjud. Ali o'g'rining ishi hech mahal Vali o'g'rining ishiga o'xshamaydi. Ba'zan jinoyatchilarning o'zlari militsiyaga yordam berishadi: uslub kimniki ekanini aytishadi. Qora dorining topilishi ham shunday " xolis xizmat " oqibati bo'lishi mumkin.(" Shaytanat



" 22-bet). Ushbu jumladagi "xolis xizmat" birikmasi – argo. Jinoyatchilar o'zlarining ichidan militsiyaga yordam beruvchilarning bu ishini " xolis xizmat " deb atashadi.

...Dilfuza guruhda erka singilga aylandi.

— Ma, " marja"nga ber ? – Qamariddin cho'ntagidan bitta yuztalikni olib, Asrorga uzatdi. (" Alvido bolalik " 24-bet). Ushbu gapda qo'llangan " marja " so'zi jargondir. Dilfuzani "marja" deb atashgan.

O'zbek yozuvchilarining namoyondalaridan biri bo'lgan Tohir Malik so'zlardan shunday mohirlik bilan foydalanadiki, u yaratgan asar har bir o'quvchi ongida, qalbida ko'p yillar muhrlanib qoladi. Uning asarlarini o'qir ekanmiz, bevosita asar qahramonlarining his-tuyg'ulariga sherik bo'lib ketamiz. Adib asarlarini tahlil qilishda o'zbek tilida chegaralangan leksikani jargon, argo va shu kabi turlarga vo'lib o'rganish mumkin.

Foydalanilgan axabiyotlar:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 jild – T. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. 2020.- B.671.
2. Rahimova Zebiniso. "Jargonlarning ilmiy-nazariy tadqiqi masalalari"
3. <https://sinaps.uz/bilasizmi/6018/> internet sayti
4. Anvarova Madina "O'zbek tiliga jargon so'zlarning o'zlashuvi"
5. Tohir Malik "Shaytanat" 1-kitob.
6. Tohir Malik "Alvido bolalik"